

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14041831>

MAKSUD SHEIKHZADE AND AYBEK

Sodiqova Robiya Dilshod qizi

Tashkent State Transport University, faculty of Economics

2nd year student of TNR-2 group. Tashkent city

E-mail: robiasodikova70@gmail.com

ANNOTATION

This article talks about the friendship of Maksud Sheikhzade and Aybek, the fact that the friends did not give up on each other, supported each other and strengthened each other. It was explained that in the terrible days, the storm of Katagon did not spare Aybek, he was expelled from the Institute of Language and Literature, he was expelled from the Writers' Union, and he was forced to move out of the house given by the union.

Key words: Aybek, writer, Katagon, novel, language, school.

MAQSUD SHAYXZODA VA OYBEK

Sodiqova Robiya Dilshod qizi

Toshkent davlat transport universiteti Iqtisodiyot fakulteti

2-kurs TNR-2 guruh talabasi. Toshkent shahar

E-mail: robiasodikova70@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bu maqolada Maqsud Shayxzoda va Oybekning do'stligi, qiyinchilik davrida do'stlarning bir biridan voz kechmaganligi, bir-birini qo'llab quvvatlaganligi haqida so'z boradi. Mudxish kunlarda qatagon bo'roni Oybekni ham chetlab otmaganligi, Til va adabiyot institutidan xaydalgani, yozuvchilar uyushmasidan o'chirilgani, uyushma tomonidan berilgan uydan esa ko'chini olib ketishga majbur bo'lgani yoritilgan.

Kalit so'zlar: Oybek, yozuvchi, qatagon, roman, til, maktab.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION)

Shayxzoda 1928 yili falakning gardishi bilan o‘zbek diyoriga kelib, oradan bir yil otmay, o‘zbek tilidagi ilk she‘rini yozganida, uning yonida Oybek bo‘lgan. Shoirning shu davrga oid kundaliklarida bunday so‘zlarni o‘qishimiz mumkin: “Bugun o‘zbek tilida ilk bor “traktor” she‘rini bitdim. Uni qisinib-qimtinib Oybekka ko‘rsatdim. Oybek she‘rni takror-takror o‘qib chiqgach, ayrim kalimalarning tagiga chizib, juda kamtarlik va muloyimlik bilan menga og‘ir botmasin, deb ana shu so‘zlarni boshqacha ifodalar bilan almashtirilsa, she‘rning manosi yana xam chuqurlashgan bo‘lardi, degan maslaxatni berdi. Bu mulohazalar va shundan keyingi ana shunday fikr olishuvlar men uchun yaxshi maktab bo‘ldi». U yana bir o‘rinda shu masalaga oydinlik kiritib, bunday degan edi: Adabiy ijodning mashaqqatli va sertashvish ibtidosini Oybek hamnafasligida boshladim, desam, mubolig‘a bo‘lmas».

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

Shayxzodaning o‘zbek tilidagi shu dastlabki she‘ri bilan boshlangan do‘stlik ozarbayjon o‘g‘lonning so‘ngi kuniga qadar davom etdi va bu do‘stlik chinorining birorta bargiga g‘ubor qo‘nmadi. Bu ikki ulkan inson va ulkan ijodkor o‘zbek xalqi madaniyatining taraqqiyoti yolida baravar xalol xizmat qildilar.

1937 yilning mudxish kunlarida qatagon bo‘roni Oybekni ham chetlab o‘tmadi. U kambag‘al oiladan chiqqanligi va sovet maktab-internatida tarbiyalangani tufayli OMON qolgan esa-da, xizmat qilgan Til va adabiyot institutidan haydaldi. Yozuvchilar uyushmasidan o‘chirildi, uyushma tomonidan berilgan uydan esa ko‘chini olib ketishga majbur etildi. Asarlari xatto gazetalarda ham bosilmagan, yarim och, yarim yalang‘och holda yashayotgan Oybek hayotining shu og‘ir va mashaqqatli kunlarida “Qutlug‘ Qon” romanini yozdi. Buni qarangi, bu romanning 1949 yili bo‘lib o‘tgan muhokamasida aksar notiqalar asardan siyosiy xato axtarish bilan mashg‘ul bo‘lgan bo‘lsalar, Shayxzoda o‘z ma‘ruzasida bu roman birga o‘zbek adabiyotida Yevropa gazi bilan o‘lchana oladigan buyuk asarning tug‘ilganini baralla aytdi va matbuotda shu haqidagi katta maqola bilan chiqdi.

RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ / NATIJALAR)

Shayxzoda Oybek nazarida nafaqat zabardast shoir, balki katta nasr “sir” larini ham yaxshi bilgan mutafakkir yozuvchi va ko‘nglida kiri yo‘q, musaffo qalbli inson ham edi. Shuning uchun u urush yillarida navbatdagi romani – “Navoiy” ni yozib tugatganida, boshqa nosirlar bo‘la turib, u Shayxzodaning shu asar haqidagi fikr maslahatlarini eshitishga katta ehtiyoj sezadi. U qalamkash do‘stini chaqirib, asarning boshlang‘ich qismini o‘qib beradi.

DISCUSSION (ОБСУЖДЕНИЕ / MUXOKAMA)

50-yillarning avvalida, Jaloliddin o‘brazini milliy qahramon sifatida tasvirlab, feodal o‘tmishni ideallashtirgani va boshqa shunga o‘xshash “gunox” lari uchun Shayxzodaning aziz boshiga malomat toshlari yog‘ildi. Shu vaqtda insult xastaligiga uchrab, tilsiz yotgan Oybek qalamkash do‘stiga yordam berish holatida emas edi. Ammo u, xasta holda bo‘lsa hamki, Shayxzodaning ozod etilganidan darak xabar topgach, o‘sha kuniyoq uni quchib, bag‘riga bosish va o‘ksik ruhini ko‘tarish uchun uning uyiga bordi. Ular bir-birlarini hurmat qiluvchi va bir-birlarini qadrlay biluvchi samimiy do‘stlardan edilar.

CONCLUSION (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / XULOSA)

1951 yil apreldan boshlab to‘shakband bo‘lgan Oybek so‘nggi nafasiga qadar kasallikdan tuzalmadi. Shu davrda Shayxzodaning ham sog‘ligi, goh u, goh bu tomonga og‘ib turardi. Shu tufayli do‘stlik tuyg‘ulari so‘nggi yillarda ular qalbining tublaridagina javohir yanglig‘ yashadi. Shayxzoda 1965 yilning 10 yanvarida, Oybek 60 yoshga to‘lgan kunda, shifoxonada davolanayotgan edi. Shunga qaramay, u do‘stiga telefon orqali she‘riy tabriknoma yozib yo‘lladi. U bu bilan kifoyalaniq qolmay, adibning 60 yilligi nishonlangan 1965yil 21 mayda, tantanali kechada o‘qib berishlari uchun, mana shu qutlov she‘rini taqdim etdi:

Adib Oybekka

Kechalar ilhombaxsh saharni kutib,
Munaqqash boblarni qog‘ozga bitib,
Soatni yutqizsa, yillarni yutib,

Asr binosiga bir gumbaz qo‘shib,
Tikoldi lojuvard ranglardan adib ...

Shamollar bog‘larga havo bag‘ishlar,
Tabiblar dardlarga davo bag‘ishlar,
Irmoqlar tuproqqa ne‘mat keltirar,
Muqova kitobga ziynat kelirar,
Qadaming sog‘ bo‘lsin, sog‘ bo‘l, ey adib...

Oltmishda er yigit kelbatli adib,
Yetmishdan oshmoqlik bo‘lg‘usi nasib,
Saksonda Chimyonda o‘ynab, sakrashib,
Elu yurt ma‘naviy yukini tashib,
Shu qutlug‘ yoshida do‘stimni qutlab ,
Degayman: “Xormagil, ey ulug‘ adib!”

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI: (REFERENCES)

1. Encyclopedia. (2009). Tashkent.
2. Na'im Karimov. (2010). Maqsud Shayxzoda: Ma'rifiy-biografik roman. T.: "Sharq", .- 336 b.
3. Sodikova R. (2023). Maksud Sheikhzada is a great translator. Journal: Education Reseach in Universal Sciences, № 12, Pp. 130-134.
4. Sodikova R. (2024). Life and creativity of Maqsud Shaikhzoda. International scientific journal: Science and Innovation, Vol.-3, Issue 2. - Pp. 50-54.
5. Sodikova R. (2024). Сын Азербайджана, узбекский поэт. "Olima ayollar-millat kelajagining tarbiyachisi" Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent. 13 fevral, O‘zMU.-С.656-657.